

"IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA SEVGI, SADOQAT VA FIDOYILIKNING BADIY TALQINI

Hamroqulova Farangiz Umarqulovna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
farangizhamroqulova1412@e-mail.com
Ilmiy rahbar: dotsent Yuldosheva Saodat Azizovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Ikki eshik orasi" romanida sevgi, sadoqat va fidoyilik tushunchalarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda qahramonlarning bir-biriga bo'lgan muhabbati hayotiy sinovlar orqali mustahkamlanib, sadoqat insoniy matonatning asosiy mezon sifatida aks ettiriladi. Shuningdek, fidoyilik nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki ijtimoiy va tarixiy jarayonlar fonida ham ko'rinadi. Ushbu maqolada roman qahramonlarining taqdiri misolida insoniy fazilatlarining qadri va ularning hayotidagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Badiiy talqin, sevgi, sadoqat, muhabbat sinovlari, insoniy fazilatlar, matonat.

"IKKI ESHIK ORASI" ROMANINDA SEVGİ, SADAKAT VE FEDAKARLIĞIN SANATSAL YORUMU

Hamroqulova Farangiz Umarqulovna,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi
Bilimsel danışman: doçent Yuldasheva Saodat Azizovna

Özet. Bu makalede "İki Kapı Arası" romanında aşk, sadakat ve fedakarlık kavramlarının sanatsal yorumu incelenmektedir. Eserde kahramanların birbirlerine olan sevgisi hayatın zorluklarıyla daha da güçlenirken, sadakat insan metanetinin başlıca ölçütü olarak yansıtılır. Ayrıca fedakarlık sadece kişisel ilişkilerde değil, arka plandaki toplumsal ve tarihsel süreçlerde de görülmektedir. Bu makalede, roman kahramanlarını kaderleri örnek alınarak insani niteliklerin değeri ve yaşamdaki rolü vurgulanmaktadır.

Anahtar kelimeler. Sanatsal yorum, aşk, sadakat, aşkın sınavları, insani nitelikler, metanet.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЛЮБВИ, ВЕРНОСТИ САМООТВЕРЖЕННОСТИ В РОМАН "ИККИ ЭШИК ОРАСИ"

Хамроқулова Фарангиз Умарқуловна,
Студентка Узбекско-Финского педагогического института
Научный руководитель: доцент Юлдашева Саодат Азизовна

Аннотация. Статье анализируется художественная интерпретация понятий любви, верности и самопожертвования в романе "Между двух дверей". В произведении любовь героев друг к другу укрепляется через жизненные испытания, а верность раскрывается как главный критерий человеческой стойкости. При этом самопожертвование проявляется не только в личных отношениях, но и в социальных и исторических процессах, происходящих на их фоне. В статье на примере судеб героев романа подчеркивается ценность человеческих качеств и их роль в жизни.

Ключевые слова. Художественная интерпретация, любовь, верность, испытания любви, человеческие качества, стойкость.

ARTISTIC INTERPRETATION OF LOVE, LOYALTY, AND DEVOTION IN THE NOVEL "IKKI ESHIK ORASI"

Hamroqulova Farangiz Umarqulovna

Student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Scientific advisor: associate professor Yuldasheva Saodat Azizovna

Annotation. *This article analyzes the artistic interpretation of the concepts of love, loyalty, and devotion in the novel Ikki Eshik Orasi. The love between the characters is strengthened through life trials, while loyalty is depicted as a fundamental criterion of human resilience. Furthermore, devotion is not only reflected in personal relationships but also in the context of social and historical processes. Through the fate of the novel's characters, the article highlights the value of human virtues and their significance in life.*

Keywords. *Artistic interpretation, love, loyalty, trials of love, human virtues, resilience.*

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi tomonidan yaratilgan bo'lib, unda insoniy fazilatlarining yuksak badiiy talqini berilgan. Asar sevgi, sadoqat va fidoyilik mavzularini o'z ichiga olib uni o'qigan kishini chuqur mushohadaga chorlaydi. Romanda qahramonlarning kechinmalari, tarixiy voqealar gavdalanadi va inson ruhiyatining murakkab jihatlarini ochib beriladi. Mazkur maqolada roman qahramonlari timsolida sevgi va sadoqat tushunchalarining talqini tahlil qilinadi.

Romanda sevgi qahramonlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, u turli sinovlarga duch keladi. O'tkir Hoshimov sevgi tushunchasini faqatgina ikki inson orasidagi tuyg'u sifatida emas, balki insonning hayotini o'zgartiruvchi, uni kuchli va matonatli qiluvchi hodisa sifatida tasvirlaydi. Asardagi muhabbat nafaqat baxtga erishish yo'lida, balki insonni buyuk ishlarga ilhomlantiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo'ladi. Qahramonlarning muhabbati ijtimoiy va tarixiy voqealar fonida mustahkamlanadi yoki sinovga duch keladi. Bu esa romanning yanada hayotiy va ta'sirchan bo'lishiga olib keladi.

Asar qahramonlari hayotida sadoqat katta ahamiyat kasb etadi. Sadoqat-bu nafaqat sevgi yo'lida matonat, balki o'z prinsiplariga, Vatanga va e'tiqodga sodiq timsoli desak mubolag'a bo'lmaydi. Asardagi qahramonlar hayotidagi sinovlar ularning sadoqatini yanada mustahkamlaydi. Ijodkor qahramonlari so'z bilan emas, balki amaliy harakatlari bilan o'z sadoqatlarini namoyon qiladilar. Asarda sadoqat faqat insoniy munosabatlarda emas, balki ijtimoiy adolat va haqiqat yo'lidagi kurashda ham yaqqol ko'rinib turadi. Ushbu romanda sadoqatni birinchi bo'lib Robiyada ko'ramiz.

Fidoyilik romandagi muhim tushunchalardan biri bo'lib, u muhabbat, e'tiqod va Vatan yo'lidagi qurbonliklar orqali namoyon bo'ladi. Qahramonlar o'z sevgisi, e'tiqodi va vatanparvarligi yo'lida ko'plab qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu jarayonda ular o'z qadr-qimmatlarini saqlab qolishga, hayot sinovlaridan o'tishga harakat qiladilar. O'tkir Hoshimov asarida fidoyilik insonning eng oliy fazilati sifatida aks ettiriladi. Asarda insonning o'z qadriyatlari uchun kurashishi, o'z baxti va erki yo'lida qurbonlik qilishga tayyorligi tasvirlanib, bu voqea roman voqealarini yanada dramatik va hayajonli qiladi.

Asar voqealari real hayotda olingandek tuyuladi. Muallif qahramonlarning ichki kechinmalarini, ularning tashvish va orzularini shunchalik tabiiy tasvirlaydiki, o'qiyotgan inson ularga befarq qaray olmaydi. Kitobdagi voqealar har kimning hayotida uchrashi mumkin bo'lgan holatlarga asoslangan bo'lib, aynan shu jihat uni yuraklarga yaqin qiladi. Roman qahramonlarining ruhiy iztiroblari, sevgisi, sadoqati va dardlari o'quvchini chuqur his-tuyg'ularga g'arq etadi. Ularning harakati, qarorlari va taqdir sinovlari insonni o'ylashga majbur qiladi. Ayniqsa insoniy munosabatlar, orzu va haqiqat o'rtasidagi kurash romanning ta'sirchanligi oshiradi. Romanda sevgi faqat baxt manbai sifatida emas, balki insonni sinaydigan, uni kuchli yoki ojiz qilib qo'yadigan tuyg'u sifatida ham talqin etiladi. "Ikki eshik orasi" romani inson qalbinning eng nozik torlariga tegib, o'quvchini chuqur hayajonga soladigan asardir.

Xulosa qilib aytish kerakki, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani sevgi, sadoqat va fidoyilik kabi insoniy fazilatlarini yorqin tasvirlaydi. Qahramonlar o'z his-tuyg'ulari va hayotiy

qarashlariga sodiq bo'lib, o'z qadriyatlari yo'lida kurashadilar. Ushbu roman inson ruhiyatining murakkabligini ochib berib, o'quvchini insoniy fazilatlar haqida chuqur munozara yuritishga undaydi. Bu asar faqat tarixiy voqealar haqida emas, balki inson qalbining yuksakligi va matonati haqida ham kikoza qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2012. 624-b.
2. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. 276-b.
3. G'afurov, A. O'zbek romanchiligi: tahlil va talqin. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
4. Qodirov P. Tarixiy roman poetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. O'tkir Hoshimov ijodi bo'yicha ilmiy maqolalar va tahlillar // Internet manbalari.
6. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX*, 514-516.
7. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. *Журнал NX*, 1026-1028.
8. Ahmad, Said. "Ikki eshik orasi" romani haqida. -640 b.